Baynaev Xayrulla Pardibaevich
Toshkent viloyati Ohangaron tumani 2-son kasb-hunar maktabi yoshlar bilan ishlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari

PROFESSIOANAL TA’LIM MUASSASASI O‘QUVCHILARINI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH MUAMMOLARI

Annotasiya: Ushbu maqolada professional ta’lim muassasasi o‘quvchilarini harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni harbiy sohaga qiziqtirish, kelajakda ularda nafaqat harbiylik ko‘nikmasini, balki vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlash va yurtimiz tinchligini asrab-avaylaydigan komil va barkamol shaxsni shakllantirishda ilmiy ishimiz ma’lum darajada xizmat qiladi.
Tayanch iboralar: harbiy vatanparvarlik, innovatsion bilim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, modellashtirish.
Аннотация:В данной статье описывается наша научная работа по воспитанию курсантов профессионального учебного заведения в духе воинского патриотизма, привитие им интереса к военному делу, укрепление в них не только воинских навыков, но и патриотических чувств в будущем, формирование совершенного и всесторонний человек, который будет защищать мир нашей страны.
Ключевые слова: воинской патриотизм, инновационные знания, информационно-коммуникационные технологии, моделирование.
Annotation: This article describes our scientific work on educating cadets of a professional educational institution in the spirit of military patriotism, instilling in them an interest in military affairs, strengthening not only military skills, but also patriotic feelings in them in the future, forming a perfect and comprehensive person who will defend the world our country.
Key words: military patriotism, innovative knowledge, information and communication technologies, modeling.

Jamiyat taraqqiyotini o‘lchov birligi bu-tinchlik, osoyishtalik, xalq farovonligi va mehnat bozorining to‘g‘ri tashkil qilinganligi bilan asoslanadi. Chunki bularsiz jamiyatda inson, shaxs o‘z erkiga, o‘z huquqiga va o‘z qadr-qimmatiga ega bo‘lmaydi. Aynan mana shu tushunchlarni jamiyatda to‘g‘ri va adolat mezonlari bilan amalga oshirilsa jamiyat tartib asosida bosqichma-bosqich rivojlanib boradi.

Biz qo‘yayotgan muammo bu-jamiyat a’zolarining navqiron qatlami bo‘lmish yoshlar masalasidir. Chunki jamiyat taraqqiyoti yoshlar ijtimoiy faolligi asosida rivojlanadi. Buni uchun esa yoshlarni jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi kuchi sifatida tarbiyalash, ta’lim berish albatta “vatanparvarlik” tuyg‘usi asosida amalga oshmog‘i lozim. Vatnparvarlik bu-quruq vadalar bilan, balandparvoz gaplarni ayuhannos solib gapirish emas, balki yoshlar mentalitetini vatan mentaliteti bilan, tarixi bilan, bitmas-tuganmas milliy va ma’naviy merosi bilan qurollantirib ularni shu o‘gitlar asnosida kamolga yetkazish dolzarb va kechiktirib bo‘lmas masaladir.

Yoshlarda vatanga bo‘lgan muhabbat albatta birinchi navbatda onadan va keyin otadan o‘tadi va ular tarbiyasi bilan shakllantiriladi. Odam otamiz va Momo havomiz yaralibdiki ular mana shu “ulug‘ koinotni” o‘zlariga vatan qildilar va insoniyat taraqqiyoti tadrijiga asos soldilar.

Vatanimiz O‘zbekistonni jahon maydoniga olib chiqayotgan “Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari” bosh g‘oyasi ezgu va hur fikrga ega bo‘lgan fuqaroni vatanga munosib shaxs qilib shakllantirish hammamizning ham farzimiz ham qarzimizdir.

Bugun dunyoda globallizm avj olayotgan, o‘ta tahlikali bir davrda yashayabmiz va bu yoshlar ta’limi va tarbiyasiga albatta o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. Bu borada birinchi galda yigitlarmizda harbiy vatanparlikni shakllantirish ustivor vazifa bo‘lib qolmoqda.

https://wordlyknowledge.uz

Yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini yuksaltirish, ularni harbiy xizmatga, o‘z Vatani-O‘zbekiston Respublikasini himoya qilishdagi burchlarini bajarishga har tomonlama tayyorlash harbiy ta’lim muassasalari pedagogik jamoalarining muhim vazifalaridan biridir.

Shu o‘rinda Milliy gvardiya Harbiy-texnik institutida ham, aynan kelgusida armiyamiz uchun yuksak malakali, vatanparvar kadrlar tayyorlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Milliy armiyamiz eng ilg‘or, innovatsion bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, modellashtirish uslublariga asoslangan zamonaviy texnik ta’lim vositalari va jangovar vaziyatlarga imkon qadar to‘la moslashishni ta’minlaydigan zamonaviy harbiy-texnika va texnologiya bilan taminlonmog‘i lozim.

Haqiqatdan ham, harbiy sohada amalga oshirilayotgan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining yana bir muhim yo‘nalishlaridan biri bu yosh avlodni “to‘laqonli vatanparvar” qilib tarbiyalash lozim bo‘lib turibdi. Bu esa yoshlarni Vatanga muhabbat, iftixor, milliy g‘urur, munosib farzand bo‘lib yetishishga intilish kabi xislatlarni shakllantirishdan iboratdir.

Davlatimiz rahbari, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni ta’kidlaganidek: “... shaxsiy tarkib ma’naviy jihatdan zaif bo‘lsa, ya’ni, askar va ofitserlarimizda jangovar ruh, Vatanga mehr va sadoqat, uning taqdiri uchun mas’uliyat bo‘lmasa yoki ularning o‘rtasida beparvolik hukm sursa, bunday holat nihoyatda noxush oqibatlarga olib kelishi mumkin” deganlari harbiylarimizga yanada mas’uliyat yuklaydi. Bu fikrlarga hamohang tarzda sohibqiron Amir Temur bobomiz ham quyidagi fikrlarini bildirganlar: **“**G‘animni to‘g‘ri baholay bilmaslikdan ko‘ra og‘irroq kulfat yo‘q. Xatoga yo‘l qo‘ymaslik uchun har bir ishni ko‘p o‘ylab, sergaklik va ehtiyotkorlik bilan qildim”, degan fikrlari bugungi kunda ham harbiy xizmatchilarimizga maktab vazifasini o‘taydi.

Yoshlarda harbiy-vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllanishida albatta ta’lim muassasalari bog‘cha, maktab, kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlar ham muhim o‘rin tutadi.

Bola shaxsini shakllanish bosqichi bu bog‘chdan boshlanadi. Bog‘cha yoshidagi bolada “vatan” tushinchasini dastlabki ko‘nikmalari shakllantirishdan boshlab to uni 17-18 yoshgacha bo‘lgan davrdagacha komponentlari to‘ldirib boriladi.

Professional ta’lim muassasasiga qadam qo‘yayotgan o‘quvchilarni harbiy sohaga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirish, vatanparvarlik fazilatlarini kamol toptirish maqsadida tarixiy qahramonlar To‘maris, Shiroq, Spitamen, buyuk ajdodlarimizdan vatanparvarlikning timsoli bo‘lgan Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur Mirzoning hayoti va faoliyati, jasoratiga doir, jangovar taktikasini ifodalovchi hamda ularning vatanparvarligini targ‘ib etuvchi uchrashuv va davra suhbatlari ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish katta ijobiy natija beradi.

Shu bilan birga ta’lim muassasalarida xususan, professioanl ta’lim muassasalarida yoshlarga harbiy sohadagi amalga oshiriladigan yangiliklarni yetkazish maqsadida mamlakatimizning barcha hududlaridagi “Avlodlarga munosib voris bo‘laylik”, “Bilib qo‘yki seni Vatan kutadi”, “Biz buyuk yurt posbonlarining munosib vorislari”, “Milliy armiyamiz-tinchligimiz qalqoni”, “Vatan sha’ni har narsadan ulug‘” mavzusida ma’naviy-ma’rifiy uchrashuvlar tashkil etilsa, o‘quvchi-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning eng asosiy omillaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni aytganlaridek: “Bugungi kunda milliy armiyamiz ming-minglab o‘g‘lonlarimiz uchun chinakam mardlik, fidoyilik, haqiqiy vatanparvarlik maktabiga aylangani, hech shubhasiz, shu yo‘lda erishgan eng katta yutug‘imizdir. Bu haqiqatni yurtimizdagi barcha ota-onalar, butun xalqimiz g‘urur bilan, minnatdorlik bilan e’tirof etmoqda”

Buni biz 2018 yil 23 fevral kuni qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi”qarori misolida ham ko‘rishimiz mumkin.

https://wordlyknowledge.uz

Yuqoridagi fikrlarimizdan kelib chiqib, yoshlarimizni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun quyidagi takliflarni amalga oshirsak o‘z oldimizga qo‘ygan ya’ni yoshlarimizning harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning eng asosiy omillari hamda fazilatlarini shakllantirishga xizmat qilish imkonini beradi:

-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida tuman, shaharlarda, mehnat jamoalari, chekka-chekka mahallalar va aholi yashash punktlarida targ‘ibot tadbirlarini uzluksiz o‘tkazish yoshlarni harbiy xizmatga, vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash imkonini beradi;

-tarixiy qahramonlar To‘maris, Shiroq, Spitamen, buyuk ajdodlarimiz, vatanparvarlikning timsoli bo‘lgan Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur Mirzoning hayoti va faoliyati, jasoratiga doir, jangovar taktikasini ifodalovchi hamda ularning vatanparvarligini targ‘ib etuvchi uchrashuv va davra suhbatlari tashkil etish katta ijobiy natija beradi;

-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida, vatanparvarlik haqida hikmatli so‘zlar, maqollar va tuzuklar yaratib, ularni yoshlarimiz ongiga uzluksiz singdirib borish zarur;

-kutubxonalarga vatanparvarlikni, boy madaniy va ma’naviy merosimizni aks ettiruvchi adabiyotlar, disklar, targ‘ibot vositalari, buklet va plakatlar bilan muntazam to‘ldirib borilsa yoshlarimiz ongi va tafakkuri yuksaladi;

-xizmat burchini bajarish chog‘ida mardlarcha halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning jasorati haqida hikoya qilib borish, yosh harbiy xizmatchilar uchun namuna sifatida ko‘rsatish, kelgusida yoshlarni Vatan va xalq oldidagi mas’uliyat, fidoyilik singari fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Shuningdek, yoshlarni ma’naviyatga, harbiy vatanparvarlikka yetaklovchi kuchlardan biri, bu albatta kitobxonlikdir. O‘zbek oilalarida kitobga muhabbat, kitobni asrab-avaylab saqlash va kitobxonlik qadimiy an’analardan bo‘lib, xalqimiz ma’naviy kamolotida muhim o‘rin tutib kelgan. Kitobxonlik-ma’naviy komillik asoslaridan biridir. Kitobsevarlik aslini olganda kitobxonlikdan suv ichgan insoniy fazilat, binobarin, unda insonning ma’naviy komillik darajasi aks etib turadi. O‘z navbatida, tinglash butun diqqatni markazlashtirish, ya’ni bir nuqtaga jamlashni taqozo etadi, pirovard-oqibatda yoshlarfaoliyatida uni ma’naviy kamolot sari yetaklovchi murakkab bir jarayondan iborat o‘qish va uqish uyg‘unligi yuzaga keladi. Zero, kitobxonlik-mehnatdir, yoshlar ma’naviyatini yuksaltiradigan, aqliy mehnat sifatida katta qunt va diqqatni, sabr va bardoshni talab etadi, yoshlar shuurini harakatga soladi, bu esa albatta harbiy vatanparvarlikka yetaklaydi.

Birgina Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarida ham o‘zbeklarga, umuman, turkiy xalqlarga xos bo‘lgan axloqiy fazilatlarni juda go‘zal misralar orqali yoritilgan. Ushbu nodir kitoblarimiz yoshlarimizni milliy qadriyatlarga hurmat, vatanparvar etib tarbiyalashda, kitob orqali milliy qadriyatlarni targ‘ib etishi g‘oyat qimmatli va qadrli manbalar bo‘lib hisoblanadi. Ularning insonparvarlik, vatanparvarlik, axloqparvarlik g‘oyalari bugungi kundagi manfaatparaslik botqog‘iga g‘arq bo‘layotgan yoshlarni jaholat changalidan qutqarishda muhim ma’naviy tayanch bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz. Shunday ekan, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish, yoshlarimizning harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash har bir kasb egasining birinchi galdagi vazifasiga aylanishi zarur.

Xulosa o‘rnida shuni takidlash lozimki tug‘ilayotgan har bir bolalarimizda vatanga nisbatan munosib tuyg‘ular “qahramonlik”, “vafodorlik”, “sadoqat”, “insonparvarlik”, “ota-onasiga, o‘z yoriga muhabbat” tuyg‘ularini singdirishimiz va shu orqali ularda vatanparvarlik timsolini qaror toptirmog‘imiz lozim bo‘lib turibdi. Agar yoshlarda bu tuyg‘ular o‘rnini “xudbinlik, egaizm, manmanlik, ilmsizlik” illatlari egallaydigan bo‘lsa biz o‘z qo‘limiz bilan o‘z vatanimizni boshqa bir begona qo‘llarga yoki begona davlatga topshirib qo‘yamiz. Biz boshimizdan bu xatoni necha bor o‘tkazganmiz va bunga tarix guvoh. Shu sababdan hozir

https://wordlyknowledge.uz

ayni vaqtda biz qanday qiyin va og‘ir bo‘lmasin ana shunday avlodni tarbiyalashdek sharafli va mashaqqali yo‘lda turibmiz. O‘ylaymanki, vatanimiz taqdiri ertaga ishonchi avlod qo‘llarida yana ham taraqqiy etadi va farovon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”. T.: “O‘zbekiston” 2017y. 221-b.

2. Temur tuzuklari. Toshkent “OZBEKISTON” 2013 y. 135-bet.

3. Mirziyoev Sh.M. 2018 yil 10 yanvar kuni Xavfsizlik kengashi majlisida “Qurolli Kuchlarimiz - mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir” nutqidan.

4. Aripov A. 2018 yil 23 fevral kuni qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi” qarori. VATANPARVAR gazetasi 2018 yil 2 mart №9 (2760) soni

WORDLY
KNOWLEDGE